

Ilk qaldirg'ochining erishgan yutuqlari

TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi akademik litsey 106-guruh o'quvchisi Norov Asilbek "O'zbek jang san'ati" sport turi bilan ko'p yillar davomida shug'ullanib keladi. Hozirgi kungacha ko'pgina yutuqlarga erishib kelmoqda. Respublika championatida Norov Asilbek "O'zbek jang san'ati" sport turi yoshlar, o'smirlar va kattalar o'rtasida jamoaviy bellashuv yo'nalishida faxrli uchinchi o'rinnlarni, bronza medal sohibi va Qashqadaryo viloyati birinchiligidagi 19-20-oktabr kunlari ushbu sport turi bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasida faxrli birinchi o'rinni egallab oltin medal sohibi bo'ldi. Akademik litsey tomonidan qimmatbaho sovg'a bilan taqdirlandi.

Qolaversa, Norov Asilbek joriy yilning 7-aprelida Osiyo championatida birinchi o'rinni, 27-28-aprel kunlari o'tkazilgan xalqaro sport musobaqasida birinchi o'rinni, Respublika miqyosida musobaqalarda 10 marotaba birinchi, 4 marotaba ikkinchi va 9 marotaba faxrli uchinchi o'rinnlarni egallagan. Akademik litsey tadbirlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, o'z sohasi bo'yicha chuqurlashtirilgan fanlardan, ya'ni kimyo va biologiya fanlaridan ham a'llo baholarda o'qib kelmoqda.



Akademik litsey ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosi Tursoatov D axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov